

INNOVATSION BOSHQARUVDA TA'LIM MUASSASASI MONITORINGNI TASHKIL ETISH TIZIMI

Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna

Nizomiy nomidagi TDPU pedagogika
fanlari falsafa doktori, dotsent

Xudoyqulov Salohiddin Shokir o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU
Maktab menejmenti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada boshqaruvda ta'lim muassasasi monitoringni tashkil etish, monitoring metodlari an'anaviy va noan'anaviy metodlar haqida tushunchalar, monitoring natijalarini rasmiylashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, monitoring o'tkazishning o'ziga xos talab va mezonlarini takomillashtirib borish bo'yicha tavsiyalar berilgan

Kalit so'zlar: reyting, ta'lim sifati, monitoring, monitoring metodlari, baholash mezonlari, indikatorlar.

Tarixiy nuqtai nazardan oladigan bo'lsak, XX asrdan boshlab fanda monitoring tushunchasi qo'llanila boshlandi. Monitoring boshqaruv tizimida sifatli axborot to'plash, ilmiy asoslangan axborotni qayta ishlash, saqlash, tarqatishni o'z ichiga oladi. U ilmiy izlanish orqali to'planganligi uchun u yoki bu sohani tahliliy xulosalar asosida kelgusidagi istiqboli va rivojlanishini ta'minlaydi. Aniq bir sohaning hozirgi kundagi ahvoriga baho beradi, uning istiqbolini bashorat etish asosida taraqqiyotini belgilaydi¹²¹.

Monitoring metodlari ikkiga bo'linadi: an'anaviy va noan'anaviy metodlar.

An'anaviy metodlar – kuzatish, eksperiment, tajribani umumlashtirish va ommalashtirish, so'rovnoma o'tkazish, ichki nazorat, natijalarni chizma jadval asosida tahlil etish, jadval va tarixiy tahlili.

Noan'anaviy metodlar – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini talab darajasida ishlab chiqilgan mezonlar asosida reyting bahosini aniqlash, tahlil etish, mavjud bo'lgan bo'shliqlarni belgilash.

¹²¹ Ахлидинов Р.Ш. Мактабни бошқариш санъати. Монография. - Т.: Фан, 2006. -303 б

Monitoring ob'ekti – ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan qarorlarning bajarilishi, ta'lim muassasasi ish rejasining bajarilishi, o'quv jarayoni, tarbiya jarayoni, uslubiy ishlar, innovatsion jarayon, o'quv-tarbiya jarayonining ta'-minlanganligi, ta'lim muassasasidagi psixologik holat.

Monitoring natijalarini rasmiylashtirish – uslubiy qo'llanma, tavsiyanoma va dars ishlanmasi, o'qituvchilarning ijodiy hisobotlari, bilim, ko'nikma va malakalarning chizma ko'rinishidagi (diagrammalar) tahlili, qatnashchilar yakuniy reytingi, so'rovnomalar, yozma tahlil, yutuqlar va kamchiliklar natijasi hamda muammolar.

Monitoring natijalarini pedagogik jamoaga yetkazish – pedagogik va metodik kengash, ishlab chiqarish yig'ilishlari, direktor huzuridagi yig'ilish, maktabning umumiy ota-onalar majlisi, metodbirlashmalar yig'ilishi, devoriy ko'rsatmalar, devoriy gazetalar, monitoring kabineti, videofilmlar.

Monitoring o'tkazishning o'ziga xos talab va mezonlari quyidagilardan iborat:

– axborotning aniqligi, ravshanligi, jarayonning aniq axborotga suyanmog'i kerakligi. Ma'lumotlar qisqa, lo'nda, ya'ni ularni qayta ishlash va uzatishga qulay bo'lishi;

– ma'lumotlar o'zaro qiyoslangan bo'lishi, olingan ma'lumot faqat ahvolni emas, undagi o'zgarishlarni ham ko'rsatishi, natijaga ko'ra uni qiyoslash va taqqoslash imkoniyati bo'lishi;

– ichki, tashqi va tizimdagi o'zgarishlarni aniq ko'rsatishi;

– olingan ma'lumotlar tizim kelajagini bashorat qila olish hamda maqsadni amalga oshirish yo'llarini oldindan tasavvur qilishga erdam berishi.

Maktab faoliyatini boshqarishda monitoring quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– yangicha yondashuv va qarashlar samaradorligi ta'minlanadi;

– ta'lim jarayonining ichki boshqaruvida samarali uslublar qo'llanadi;

– o'zini oqlamagan va samarasiz uslublardan, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'rganishda ilmiy, uslubiy, diagnostik, nazariy asosga ega bo'lmagan ishlarni qo'llashdan hamda tasodifiy sinovlardan voz kechiladi;

– o'qituvchi, maktab psixologi va rahbar o'rinbosari faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirish ta'minlanadi;

– o'quvchi faoliyatini nazorat etuvchi, ota-onalar, jamoatchilik fikrini o'rganuvchi me'yoriy hujjatlar bazasi yaratiladi va tartibga solinadi;

– har bir maktabning ichki nazoratini amalga oshirish loyihasi – dasturi va Nizomi ishlanadi;

– yaratilgan dasturlarni tajriba-sinovdan o'tkazish, uning shakli, mazmuni, hajmi va muddatlari takomillashtiriladi.

Boshqarilayotgan ob'ektlarning axborot modellarini boshqarishning zaruriy sharti ta'lim tizimi faoliyati maromiga mos keladigan tartibda ularni doimiy yangilab borishdan iborat. Buning uchun ob'ektning istalgan natijaga mosligini aniqlash maqsadida uning holatini doimiy nazorat qilish, boshqarilayotgan ob'ekt holatining monitoringi zarur. Kuzatuv kiritilgan ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha ob'ektning holatini yaqqol ko'rsatib beruvchi ma'lumotlarni to'plash orqali amalga oshiriladi.

Ta'limda monitoring pedagogik faoliyatni doimiy kuzatish orqali va u haqda axborot to'plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish orqali uning ahvoli, rivojlanish va taraqqiyotiga ta'sir etishdan iborat. Masalan, o'quv jarayonining o'quvchi shaxsiga ta'sirini o'rganish bo'yicha doimiy kuzatuvlar orqali axborot to'plash, saqlash va qayta ishlash asosida uning ahvoli hamda kelgusi istiqboli belgilanadi.

O'quv-tarbiya jarayonini baholashning turli strategiyalaridan, ya'ni rasmiy va norasmiy, diagnostik va umumiy yondashuvga asoslangan baholash usullaridan foydalanish.

Maktab rahbarlari tomonidan ta'lim sifatiga erishish va uni boshqarishning samaradorlik darajasini aniqlash uchun o'quv jarayoni ichki monitoringi ta'sirchanligi va haqiqiylikni ilmiy-amaliy jihatdan ta'minlash.

Nazoratlarning davriyligi, muddati va mazmunini belgilab olish, nazoratning ochiq va oshkora o'tkazilishi, natijalarning ob'ektivligini ta'minlash. Maktabda har tomonlama namunali hisoblangan o'quvchilar nazoratlar davrida maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasining e'tiboridan chetda qolmaslikni oldini olish hamda ularni rag'batlantirib borish.

Faol va namunali o'quvchilarni o'rnak qilib ko'rsatishda o'sha o'quvchilarning manmanlikka berilib ketmasliklari o'qituvchilar tomonidan nazorat qilib turish.

O'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish uchun o'quv fanlari kesimida tasirchang chora-tadbir belgilash, maktabdagi mavjud ichki imkoniyatlardan mohirona foydalana bilish, zarur hollarda vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun tezkor muqobil qarorlar qabul qilish.

Maktab faoliyatini boshqarishda monitoring pirvard natijasining samaradorligini ta'minlash.

Monitoring o'tkazishning o'ziga xos talab va mezonlarini takomillashtirish.
Axborotning aniqligi, ravshanligi

– jarayon aniq axborotga suyanmog'i kerakligi hamda axborot, raqamlar qisqa, lo'nda, ya'ni qayta ishlash, uzatishga qulay bo'lishini ta'minlash.

Ta'lim jarayonini avvaldan ishlab chiqilgan tizim yoki mezon indikatorlar yordamida tahlil qilish. Ma'lumotlar o'zaro qiyoslanganligi, olingan ma'lumot bo'layotgan o'zgarishlarni ko'rsata olganligi, natijaga ko'ra uni qiyoslash, taqqoslash mumkin bo'lishini ta'minlash.

Maktab faoliyatini boshqarishda monitoring pirvard natijasining samaralari yangicha yondashuv va qarash yaxshi natijalar berishiga, ichki, tashqi o'zgarishlar asosida tizimdagi o'zgarishlarni aniq, ravon ko'rsatilishiga erishish. Olingan ma'lumot tizim kelajagini oldindan bashorat qila olishligi hamda maqsadni amalga oshirish yo'llarini oldindan tasavvur qilishga yordam berishini yangicha yondashuv va qarashlar samaradorligini ta'minlash.

Umuman, ta'limdagi monitoring pedagogik kategoriya bo'lib, bir vaqtda boshqaruvni tartibga solib borishga yordam beradi.

Axborotlar tahlili asosida pedagogik tizim jarayonida, sog'lom ruhiy muvozanatni saqlash, boshqaruvni samarali yo'lga solishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Monitoring uchun axborotlarni to'plashni o'z yo'nalishiga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- ta'lim jarayonini hech qanday o'lchov, qiyosiy birliklarsiz tahliliy-bayoniy ko'rinishda (tahlil, tanqid, taklif, tatbiq);

- ta'lim jarayonini bevosita parametrlarning fizik (strukturaviy) o'lchovlari orqali tahlil qilish;

- ta'lim jarayonini avvaldan ishlab chiqilgan tizim yoki mezon indikatorlar yordamida tahlil qilish;

- ta'lim jarayonini ma'lum qabul qilingan ilmiy asoslangan texnologiyalar yoki avvaldan ilmiy izlanishlar asosidagi kuzatuvchilar tahlillari.

Ta'lim jarayonidagi monitoringni bir necha yo'nalishga bo'lish mumkin.

Birinchi yo'nalish. Ta'lim jarayonidagi suhbat; savol-javoblar, so'rovlar natijalarini to'plash, boshqaruv bo'yicha axborotlar tizimini yaratish (qonun, qaror, nizom va tavsiyalar va boshqalar).

Ikkinchi yo'nalish. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining o'sishini kuzatuvchi monitoringni yaratish (DTS ijrosi bo'yicha). Bunda sinflar, fanlar, o'quv guruhlari kesimida ayrim bo'limlar, boblar, mavzular bo'yicha qiyosiy tahlil qilinadi va ko'zda tutilgan maqsad, o'quv jarayoni boshqaruviga tuzatishlar kiritish, o'zgartirish, rivojlantirish orqali istiqboldagi vazifalar aniqlashtiriladi.

Yuqoridagi tahlillarning amalga oshirilishi boshqaruvni modernizatsiyalash bo'yicha rahbarlarga yordam beradi.

Uchinchi yo'nalish. Kirish-chiqish modeliga asoslangan monitoring, masalan, boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlarini bajarish samaradorligini, 9-sinf bitiruvchilariga qo'yilgan standart talablarning amaldagi ahvolini o'zlashtirish darajasini aniqlovchi monitoring. Bunda o'quvchining maktabga birinchi bor kelgan paytdagi ijtimoiy ahvolidan, bitirishgacha standart me'yorlarni o'zlashtirish darajasi aniqlanib, tahlil va takliflar asosida kelgusi vazifalar belgilanadi.

To'rtinchi yo'nalish. Ta'lim masalalaridagi qo'llanilayotgan innovatsiyalar, texnologiyalar, noan'anaviy usullarning samaradorligini, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni, o'qituvchining malakasini, mahoratini, darajasi ta'sirini ko'rsatuvchi, aniqlovchi monitoringdir.

Maktabda ta'lim sifati monitoringi asosiy vosita bo'lib, standartlarning o'zlashtirilish darajasi, o'qituvchi mahoratiga baho, ichki boshqaruvning maqsadga to'g'ri yo'naltirilganligini real aniqlashga yordam beradi.

Sifat monitoringi diagnostika, reyting, testlar orqali aniqlanadi. Ular orqali o'quvchining intellekti, tarbiyalanganlik darajasi, bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlari haqidagi ma'lumotlar jamlanadi. Shuningdek, monitoring natijalari asosida o'quvchilarning oiladagi ijtimoiy ahvoli, o'zaro aloqa va munosabatlari, o'qituvchining innovatsion faoliyati, yangi texnologiyalarni qo'llay olishga oid kasbiy mahorati, uning ta'lim-tarbiyadagi o'rni aniqlanadi, ijtimoiy ahvoli masalalari oydinlashtiriladi, xulosalar chiqariladi, chora-tadbirlar ko'riladi.

Ta'lim sifatining monitoringi maktab darajasida tuman-shahar kesimida, viloyat, respublika miqyosida olib boriladi.

Ularda takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish darajasi maktab, tuman, viloyat kesimida qiyoslanib, tahlil etiladi, xulosalar chiqariladi, tadbirlar tuziladi, qarorlar qabul qilinib, choralar belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda monitoring shunga olib kelishi kerakki, u zamonaviy boshqaruvning asosiy vositalaridan biriga aylanmog'i lozim. Ta'lim monitoringi ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlashda, maktab ichki boshqaruvini tashkil etishda eng qulay va istiqbolli yo'l hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida paydo bo'layotgan muammolarni, to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bashoratlash, uning rivojlanish dinamikasini kuzatish, kutilayotgan pirovard natijalarni bashorat qilish, qiyoslash masalalari monitoringning qay darajada tashkil etilganligiga bog'liq.

Monitoring ko'p qirrali faoliyat bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonining pirovard natijalari; o'quvchining rivojlanganlik darajasi, o'qitish sifati darajasini; ijtimoiy faoliyati, ma'naviy barkamolligi darajasi, tarbiya topganligi, ichki nazoratning naqadar maqsadga muvofiq qo'yilganligi, boshqaruv samaradorligi, natijalarni tahlil etish, natijalash, xulosa chiqarish, o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rish uchun qulay sharoit yaratadi.

Umuman, ta'lim jarayoniga monitoringni tatbiq etishning ilmiy-nazariy asoslanganligini izga solish ta'lim-tarbiyaviy ishlar mazmunini, o'qitish texnologiyasi, metodlari, shakli va vositalarini yangi bosqichga olib chiqish imkonini ochib beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchilar tomonidan Davlat ta'lim standarti talablarini o'zlashtirishni kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ахлидинов Р.Ш. Мактабни бошқариш санъати. Монография. - Т.: Фан, 2006. - 303 б
2. Джураев Р.Х., Тургунов С.Т., Ахмедова НД. Таълим бошқаруви (менежменти): назария ва амалиёт масалалари. - Т.: УзПФТИ, 2013. - 144 б.
3. Звонников В.И., Чельшкова М.Б. Контроль качества обучения при аттестации: компетентностный подход. М.: Университетская книга, 2009. 272 с
4. Ключарев.Г.А. Формирование общества, основанного на знаниях. Новые задачи высшей школы. Доклад Всемирного банка. М.: Вес мир, 2003; Непрерывное образование и потребность в нем /: Наука, 2005.
5. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения М.: Педагогика, 1981. - 186 с.